

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 535 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA Budget-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSiya MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safojev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIVAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLIVALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSiya RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....	504
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	508
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	514
Adilov Mirkomil Miralimovich	
IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI	520
Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li	
MO'RT MATERIALLARNI MEXANIK KESIB ISHLOV BERISHDA ASBOB YUZASIDA KUZATILADIGAN YEYILISH	526
Allanazarov Akmal Abdulxaqovich, Axmedov Azamat Xaitovich, Shakirov Shuhrat Musayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	530
Lukmanov Kahramon Abdurahmanovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Lukmanov Kahramon Abdurahmanovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

«Soliq va Soliqqa Tortish» Kafedrası Mustaqil Tadqiqotchisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-6317-336X>

E-mail: kakhramonlukmanov@gmail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida soliq ma'muriyati faoliyatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Soliq monitoringi tizimi orqali soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida ishonchli, shafof hamda elektron hamkorlikni yo'lga qo'yishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan.

Amerika, Yevropa va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining ilg'or tajribalari tahlili asosida O'zbekistonda soliq monitoringi institutini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va imkoniyatlari belgilangan. Shuningdek, maqolada axborot tizimlarini integratsiya qilish orqali soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish, hamda davlat byudjeti barqaror daromad manbalarini ta'minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, soliq monitoringi, soliq ma'muriyati, axborot almashinuvi, gorizontal monitoring, raqamlashtirish, kybersig'urta, axborot texnologiyalari, soliq to'lovchilar, shafoflik.

Abstract. This article examines the improvement of tax administration in the context of the rapid development of digitalization, automation, and artificial intelligence technologies. It analyzes the theoretical and practical aspects of establishing reliable, transparent, and electronic interaction between taxpayers and tax authorities through a tax monitoring system. Based on an analysis of best practices in the United States, Europe, and the Commonwealth of Independent States, it identifies key areas and opportunities for developing tax monitoring in Uzbekistan. Furthermore, the article proposes mechanisms aimed at reducing tax evasion and ensuring stable sources of state budget revenue through the integration of information systems.

Keywords: digital economy, tax monitoring, tax administration, information exchange, horizontal monitoring, digitalization, cybersecurity, information technology, taxpayers, transparency.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования деятельности налогового администрирования в условиях стремительного развития технологий цифровизации, автоматизации и искусственного интеллекта. Проанализированы теоретические и практические аспекты налаживания надёжного, прозрачного и электронного взаимодействия между налогоплательщиками и налоговыми органами посредством системы налогового мониторинга. На основе анализа передового опыта США, стран Европы и Содружества Независимых Государств определены основные направления и возможности развития института налогового мониторинга в Узбекистане. Кроме того, в статье предложены механизмы, направленные на снижение случаев уклонения от уплаты налогов и обеспечение стабильных источников доходов государственного бюджета посредством интеграции информационных систем.

Ключевые слова: цифровая экономика, налоговый мониторинг, налоговая администрация, обмен информацией, горизонтальный мониторинг, цифровизация, кибербезопасность, информационные технологии, налогоплательщики, прозрачность.

KIRISH

Bugungi kunda raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy biznesning an'anaviy shaklini tubdan yangilamoqda. Bu jarayon faqat ish yuritish uslubiga emas, balki soliq to'lovchilar uchun qo'llaniladigan qoidalar tizimiga ham yangi mazmun va yo'nalish bermoqda.

Ushbu yangilanishlarning ta'siri, avvalo, soliq tushumlarining asosiy qismini ta'minlab kelayotgan yirik kompaniyalar faoliyatida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va xizmat



ko'rsatishda samaradorlikni oshirmoqda. Xususan, avtomatlashtirish xarajatlarni qisqartirishga, katta ma'lumotlar tahlili bozorni kuzatishda aniqroq bashorat qilishga, raqamli platformalar esa mahalliy chegara chegaralarini yo'q qilib, jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu orqali kompaniyalar raqobatbardoshligini mustahkamlab, yangi daromad manbalarini shakllantirmoqda.

Biroq, texnologik innovatsiyalar nafaqat imkoniyat, balki bir qator jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Masalan, transchegaraviy moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish jarayoni tobora murakkablashmoqda, kibersig'urta masalalari har bir korxona uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, blokcheyn yoki kriptovalyutalar kabi mutlaqo yangi biznes modellari paydo bo'lishi amaldagi soliq siyosatini qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirmoqda.

Shunday sharoitda davlat va biznes oldidagi ustuvor vazifa texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishni to'xtatmasdan, barqaror soliq tushumlarini ta'minlaydigan muvozanatli yondashuvni ishlab chiqishdir. Faqat shunda ilg'or texnologiyalar ehtimoliy tahdid emas, balki uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi yetakchi harakatlantiruvchi kuch sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, butun jamiyat farovonligini oshirishga mustahkam zamin yaratadi.

Ushbu maqolada, soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi raqamli hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ishonch va shafolikasida axborot hamda hujjatlarni tezkor va samarali elektron almashinuvini ta'minlash masalalari yoritiladi. Shu bilan birga, soliqdan bo'yin tovlash holatlarining oldini olish va soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishni kafolatlashda zamonaviy nazorat vositalari, ayniqsa idoralararo ma'lumot almashinuvi tizimining roli va ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Maqolada, O'zbekistonda soliq to'lovchilarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choralar hamda soliq ma'muriyati faoliyatida idoralararo axborot hamkorligining amaldagi holati o'rganilib, soliq tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish yo'llari ko'rsatiladi. Tadqiqotda soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish, soliq to'lovchilar uchun barqaror va ishonchli institutsional muhitni shakllantirish, shuningdek, davlat byudjeti daromadlarini oshirishga xizmat qiladigan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur taklif va tavsiyalar soliq tushumlari darajasini oshirish, nazorat jarayonlarining sifatini va aniqligini yuqori darajaga ko'tarish, shuningdek, nazoratni yagona standartlar asosida amalga oshirish imkoniyatlarini yana-da mustahkamlashga qaratilgan.

MAVZUYA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xitoylik bir guruh tadqiqotchilar Yongwei Ye, Zeng Lin, Yunqing Tao, Feng Yun o'zlarining "Tax Authority Monitoring and Corporate Information Disclosure Quality in China" nomli ilmiy maqolasida soliq monitoringining kompaniyalar moliyaviy faoliyati va axborot oshkor etish sifatini oshirishdagi rolini atroflicha tahlil qilganlar. Mualliflar fikriga ko'ra, soliq monitoringini kengaytirish orqali kompaniyalar yuqori sifatli moliyaviy ma'lumotlarni oshkor etishga rag'batlantiriladi. Bu esa soliq organlariga kompaniyalar tranzaksiyalari va moliyaviy oqimlarini samarali nazorat qilish, shu orqali iqtisodiy faoliyatda shafolikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi [1].

Janina Enachescu, Maximilian Zieser, Eva Hofmann, Erich Kirchler tomonidan Avstriyada tajriba tariqasida amalga oshirilgan soliq monitoringi (gorizontal monitoring) loyihasi doirasida yozilgan "Horizontal Monitoring in Austria: Subjective Representations by Tax Officials and Company Employees" nomli maqolada ushbu tizimning amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, loyiha ishtirokchisi bo'lgan kompaniyalar soliq organlari bilan ishonchli va barqaror munosabatlar o'rnatish imkoniyatidan mamnun ekanliklarini bildirganlar. Shuningdek, loyiha ishtirok etmagan kompaniyalar ushbu tizimning ishlash mexanizmini to'liq anglamaganini va unga nisbatan ehtiyotkor yoki ishonchsiz munosabatda bo'lganini aniqlagan [2].

Niderlandiyalik olim Hans Gribnau o'zining "Horizontal monitoring: Some procedural tax law issues and their broader meaning" nomli ilmiy maqolasida soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hamkorlik hamda o'zaro ishonch munosabatlariga alohida e'tibor qaratgan. Muallifning ta'kidlashicha, bu munosabatlar hozirgi davrda soliq to'lovchilarining soliq qonunchiligiga ixtiyoriy ravishda rioya etishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, bunday ishonch va hamkorlik tizimi soliq qonunchiligini samarali va qonuniy tarzda amalga oshirish, shu bilan birga, soliq ma'muriyatining umumiy samaradorligini oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslama tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalandi. Shu bilan birga, Amerika, Yevropa va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari soliq monitoringi amaliyoti tahlil qilindi. Bu usullar mavjud muammolarni aniqlash, xolis xulosalar chiqarish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Texnik taraqqiyot sharoitida va soliq to'lovchilar bilan axborot almashinishni yangi bosqichga olib chiquvchi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'un holda "soliq monitoringi" deb ataluvchi nisbatan yangi tushuncha vujudga keldi.

Umuman olganda, "monitoring" tushunchasi ma'lum bir jarayonni doimiy ravishda kuzatish, belgilangan ko'rsatkichlarni aniqlash hamda ularning kutilgan natijalarga muvofiqligini tahlil qilishni anglatadi. Monitoring natijalari asosida, odatda, zarur tuzatishlar kiritilib, tegishli takomillashtirish choralar ko'riladi.

Soliq monitoringi ilk bor Yevropa mamlakatlari va Amerikada amaliyotga joriy etilgan. Keyinchalik Kanada, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya hamda boshqa rivojlangan davlatlarda soliq monitoringi instituti qonun darajasida mustahkamlandi. Ushbu mamlakatlarda mazkur tizim "gorizontal monitoring" nomi bilan mashhur bo'lib, u soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda tenglik, ochiqlik va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida Rossiya Federatsiyasida soliq monitoringi instituti rasmiy 2015-yil 1-yanvardan amaliyotga joriy etilgan [4].

Mazkur tizimning "soliq nazoratining yangi shakli" sifatidagi ilk qo'llanilishi 2012-yilda yirik soliq to'lovchilar bilan "kengaytirilgan hamkorlik to'g'risidagi bitim"ni imzolash orqali sinov tariqasida amalga oshirilgan. Soliq monitoringi 2024-yilda Rossiya iqtisodiyotining turli tarmoqlariga mansub 569 ta yirik korxonada amalga oshirilishi boshlandi. Rossiya Federal soliq xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning birinchi choragi yakuni bilan soliq monitoringi tizimida ishtirok etuvchi kompaniyalar soni 737 tani tashkil etdi. Ushbu ro'yxatga o'rta biznes subyektlari ham kiritilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 30 foizga oshgan. O'z navbatida, monitoringda ishtirok etgan korxonalar iqtisodiyotning 20 ta asosiy sohasida faoliyat yuritib, davlat byudjetiga tushayotgan umumiy soliq tushumlarining 38 foizini ta'minlagan. Soliq monitoringi rejimi ommalashuvining asosiy omillaridan biri unga qo'shilish uchun belgilangan mezonlarni bosqichma-bosqich kamaytirish bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, tizimga kirishda nafaqat yirik korxonalar, balki katta va o'rta biznes subyektlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Xususan, 2021-yilgacha soliq monitoringi rejimiga faqat yillik daromadi va aktivlarining har biri 3 milliard rubldan ortiq, shuningdek, to'langan soliqlar miqdori 300 million rubldan yuqori bo'lgan korxona va tashkilotlar qo'shilgan. 2021-yildan boshlab mazkur mezonlar yana yumshatilib, daromad va aktivlarning har biri uchun talab 1 milliard rubl, to'langan soliqlar bo'yicha esa 100 million rubldan yuqori etib belgilandi. Shuningdek, 2024-yildan (2025-yilda tizimga qo'shilish uchun) belgilangan chegara yana qisqartirilib, korxona va tashkilotlarning yillik daromadi hamda aktivlarining har biri uchun qiymat 800 million rubl, to'langan soliqlar miqdori esa 80 million rubl etib belgilab qo'yildi.

Qozog'iston Respublikasida 2020-yildan boshlab soliq monitoringi bo'yicha tajriba loyihasi amalga oshirilmoqda. Ushbu tizimda ishtirok etish uchun soliq to'lovchilarga nisbatan aniq mezonlar belgilangandir. Ishtirokchilar toifasiga, jumladan, ma'lum moliyaviy ko'rsatkichlarga (masalan, aktivlar qiymati va to'langan soliqlar hajmi) hamda avtomatlashtirilgan hisob va ichki nazorat tizimlariga ega yirik tijorat tashkilotlari kiritilgan. Shuningdek, loyihada kvazidavlat sektori kompaniyalari, yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar va ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi tashkilotlar ishtirok etishi mumkinligi belgilangan. Sinov loyihasi 10 ta yirik soliq to'lovchini qamrab olib, iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi yana 20 ta kompaniya bilan muzokaralar olib borilgan [5]. Mazkur jarayon Qozog'iston soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy va hamkorlikka asoslangan yondashuvlarning joriy etilayotganini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasida soliq monitoringi 2018-yil 1-yanvardan boshlab rasmiy qonunchilik amaliyotiga joriy etildi. 2017-yil 30-dekabrda O'RQ-455-sonli Qonun¹ orqali Soliq kodeksiga soliq monitoringiga oid maxsus boblar kiritildi.

Bundan tashqari, 2020-yil 20-noyabrda Vazirlar Mahkamasining 736-son qarori² bilan "Soliq monitoringini o'tkazish tartibi to'g'risida" Nizom tasdiqlandi [6].

Hozirgi kunda, Soliq kodeksining 19-bobi, ya'ni 169–175-moddalari soliq monitoringi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, monitoringni o'tkazish soliq to'lovchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Amaldagi Soliq kodeksiga ko'ra, yuridik shaxs o'zining oldingi yildagi moliyaviy hisobot ma'lumotlariga binoan yillik daromadi kamida besh milliard so'mni tashkil etgan taqdirda, soliq monitoringini o'tkazish haqida ariza bilan soliq organiga murojaat qilish huquqiga ega. Soliq monitoringi jarayoni monitoring o'tkaziladigan yilning 1-yanvarida boshlanib, mazkur davr tugaganidan keyingi yilning 1-iyulida yakunlanadi.

Amaliyotda hozirgi vaqtda korxonalar tomonidan soliq monitoringi jarayoniga nisbatan muayyan qiziqish mavjud. Shu bilan birga, mazkur monitoringni amalga oshirish bo'yicha rasmiy arizalar hali ham taqdim etilmayotgani qayd etilmoqda.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.12.2017 yildagi O'RQ-455-son <https://lex.uz/uz/docs/-3480448?ONDATE=31.12.2022%2000>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.11.2020 yildagi 736-son <https://lex.uz/ru/docs/-5115911>



Bizning fikrimizcha, bu holatni bir qator asosiy omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, soliq monitoringini samarali yo'lga qo'yish uchun soliq hisobotlari, buxgalteriya tizimlari va soliq xizmati platformalari o'rtasida avtomatlashtirilgan hamda standartlashtirilgan ma'lumot almashinuvi bo'lishi zarur.

Ikkinchidan, soliq monitoringini faqat ichki nazorat tizimi rivojlangan va faoliyati shafof korxonalar samarali amalga oshira oladi. Shu nuqtai nazardan, kichik va o'rta biznes subyektlarida buxgalteriya hamda ichki nazorat tizimlari etarlicha rivojlanmaganligi sababli, ular hali mazkur jarayonni to'liq tayyor emas.

Uchinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Gorizontol monitoringni samarali amalga oshirish uchun ham soliq organlarida, ham korxonalarda tahlilchilik, axborot texnologiyalari va protsess-menejment sohalaridagi bilim va ko'nikmalarni oshirish talab etiladi.

To'rtinchidan, an'anaviy vertikal nazorat tizimidan hamkorlikka asoslangan "gorizontol" munosabatga o'tish nafaqat texnik, balki institutsional va psixologik o'zgarishni ham talab etadi.

Beshinchidan, axborot xavfsizligi masalalari ham muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, xalqaro kompaniyalarda keng qo'llaniladigan ERP, 1C, SAP kabi markazlashtirilgan axborot tizimlarida ma'lumot xavfsizligi va kirish huquqi masalalari, odatda, bosh ofislar tomonidan boshqariladi. Bu esa mahalliy darajada ma'lum cheklovlar va amaliyotdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sharoitida soliq monitoringi institutini rivojlantirish maqsadida quyidagi amaliy choralarni ko'rish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: soliq monitoringi institutini rivojlantirish uchun uning joriy etish standartlari va metodologiyasini takomillashtirish, shuningdek, mazkur yo'nalish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va amaliyotga tatbiq etish; soliq organlarida soliq monitoringiga ixtisoslashgan maxsus tuzilmani tashkil etish, uning faoliyatini huquqiy va institutsional jihatdan mustahkamlash; soliq organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida maxsus elektron platforma yaratish, shu bilan birga, ushbu platformani korxonalar ichki axborot tizimlari bilan integratsiyalash orqali ma'lumot almashinuvining tezkorligi va aniqligini ta'minlash; soliq organlari xodimlari uchun buxgalteriya hisobi, raqamli tahlil, katta ma'lumotlar (Big Data) hamda kibersig'urta sohalar bo'yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etish; gorizontol soliq monitoringi amaliyotini sinov tarzida yirik va o'rta biznes subyektlari faoliyatida keng joriy etish, bu orqali xo'jalik faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshirish. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq monitoringi tizimini samarali yo'lga qo'yish nafaqat davlat byudjeti barqaror daromad manbalarini aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi, balki davlat va xususiy sektor o'rtasida o'zaro ishonch hamda konstruktiv hamkorlik muhitini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yongwei Ye, Zeng Lin, Yuning Tao, Feng Yun. Tax Authority Monitoring and Corporate Information Disclosure Quality in China. Journal of Accounting and Public Policy, 2020.
2. Janina Enachescu, Maximilian Zieser, Eva Hofmann, Erich Kirchler. Horizontal Monitoring in Austria: Subjective Representations by Tax Officials and Company Employees. International Tax Journal, 2019.
3. Hans Gribnau. Horizontal monitoring: Some procedural tax law issues and their broader meaning. Tilburg University, 2022.
4. Rossiya Federatsiyasi Normativ-huquqiy hujjatlarining rasmiy sayti: <http://publication.pravo.gov.ru/>.
5. Qozog'iston Respublikasi Davlat daromadlari qo'mitasi rasmiy veb sahifasi: <https://kgd.gov.kz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100